

## O'ZBEKİSTON SOLIQ TİZİMİDA BİLVOSITA SOLIQLAR BAZASINI ANIQLASHNING USLUBIYATI VA O'ZİGA XOS XUSUSİYATLARI TAHLİLİ

PhD **Xalikchayeva Sadokat Ilhomjonovna**

Toshkent davlat iqtisiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-8782-2762

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mavjud bilvosita soliqlar hisoblangan aksiz va qo'shilgan qiymat solig'ining bazasini aniqlash tartibi, uning amal qilish mexanizmi, xususiyatlari, shuningdek, olib borilayotgan soliq siyosati jarayonlarining bu soliqlar bazasiga ta'sir xususiyatlari masalalari ko'rib chiqilgan. Xususan, bilvosita soliqlarning bazasiga ta'sir etuvchi omillarga tadqiqot jarayonida alohida ta'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** soliqlar, soliq tizimi, soliq siyosati, aylanma, realizatsiya, soliq bazasi, soliq kodeksi, soliq imtiyozlari, QQS, aksiz solig'i.

## АНАЛИЗ МЕТОДА И ОСОБЕННОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КОСВЕННОЙ НАЛОГОВОЙ БАЗЫ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА

PhD **Халикчаева Садокат Ильхомжоновна**

Ташкентский государственный

экономический университет

**Аннотация.** В данной статье рассмотрен порядок определения базы акцизов и налога на добавленную стоимость, являющихся косвенными налогами в налоговой системе Республики Узбекистан, механизм его действия, особенности, а также влияние текущих процессов налоговой политики. по этой налоговой базе считается развитой. В частности, в процессе исследования специально обсуждались факторы, влияющие на базу косвенных налогов.

**Ключевые слова:** налоги, налоговая система, налоговая политика, оборот, реализация, налоговая база, Налоговый кодекс, налоговые льготы, НДС, акциз.

## ANALYSIS OF THE METHOD AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF DETERMINING THE INDIRECT TAX BASE IN THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN

PhD **Khalikchayeva Sadokat Ilhomjonovna**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** In this article, the procedure for determining the base of excise and value-added tax, which are the indirect taxes in the tax system of the Republic of Uzbekistan, its mechanism of action, features, as well as the impact of current tax policy processes on this tax base, is considered. developed. In particular, the factors affecting the base of indirect taxes have been specially discussed in the research process.

**Key words:** taxes, tax system, tax policy, turnover, realization, tax base, tax code, tax privileges, VAT, excise tax.

## Kirish.

Iqtisodiyotning erkinlashuv sharoitida soliqlar davlat byudjetining asosiy manbai ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, qaysi soliqdan qancha miqdorda undirib olish lozimligini soliq bazasining aniqlanish tartibi va xususiyatlari belgilab beradi. Bunda bilvosita va bevosita soliqlarning bazasini aniqlash tartiblari malakat doirasida olib boriladigan iqtisodiy-ijtimoiy siyosat holatidan kelib chiqib olib borilishi ma'lum jayrayon hisoblanadi.

Hammamizga ma'lumki, davlat byudjetida bevosita va bilvosita soliqlarning yig'iluvchanlik darajasidan kelib chiqqan holda shu mamlakatning sog'lom iqtisodiy siyosatidan xulosa qilish mumkin. Bilvosita soliqlar mahsulot va xizmatlarning narxlari ustiga qo'yiladigan va undan to'langan mablag'lar yetkazib beruvchisidan emas, balki uning ohirgi iste'molchisidan olidiga soliq hisoblanib, dunyonong deyarli barcha mamalakatlarida amal qiladi. Jumladan, bu soliqlarga misol sifatida savdo solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, bojxona to'lovlar va tariflarni kiritish mumkin.

Albatta, bevosita soliqlar ulushining tahlili soliq tizimida doimiy muhokamalar ostida bo'lsada, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar byudjetida bilvosita soliqlar hissasi hali hamon yuqoriligidan saqlanib qolayotgani bilan diqqatga sazovor. Shunday ekan, bilvosita soliqlar tushumining asosi ohir oqibatda bu soliqlarning bazasini aniqlash tartibiga borib taqaladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda bilvosita soliqlar tarkibiga mansub bo'lgan qo'shilgan qiymat va aksiz solig'i bazasini aniqlash tartiblarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishni ushbu maqolamizning maqsadi sifatida belgilab oldik.

## Adabiyotlar sharhi.

Bilvosita soliqlar iqtisodiy zarurligi va uning ahamiyati xususida ko'pgina iqtisodchi olimlar o'z izlanishlarida chuqur mulohazalar taqdim etishgan bo'lib, bu fikrlar asnosida soliq tizimi bugungi ko'rinishini kasb etgan. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'inining mamlakatimiz soliq tizimida samarali faoliyatini tashkil qilish (Gadoyev, 2011), bilvosita soliqlarning davlat byudjetidagi salmog'ni tahlil qilish (Gataulin, 1996) va bu soliqlarni yig'iluvchanlik samaradorligini tashkil etishga doir (Zavalishina, 2005) ilmiy-tadqiqotlari benihoya muhimdir. Qolaversa, bilvosita soliqlarning bazasini aniqlash usullari haqida boshqa ilmiy izlanishlar ham mavjud, jumladan, QQS bazasi bilan bog'liq turli masalalar, xususan, soliq bazasini aniqlash, imtiyozlar va moliyaviy xizmatlarni ko'rib chiqish ustida mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan turli yondashuvlar va ularning oqibatlarini tahlil qilganligining ham guvohi bo'lish mumkin (Keen va Lokvud, 2007).

Shuningdek, QQS bilan bog'liq keng ko'lamlı mavzularni, jumladan, soliq solinadigan bazani aniqlashga oid izlanishlar qilib, turli mamlakatlarda moliyaviy xizmatlarga munosabat, imtiyozlar va QQSni joriy etish muammolari kabi masalalarga oid qarashlarini rivojlantirganligi ham bunga yaqqol misoldir(Tait va boshqalar, 1991).


Yuqoridagilar bilan bir davrda aksiz solig'i bazasini aniqlashga doir ilmiy qarashlar ham rivojlangan bo'lib, xususan, 20-asr boshidagi iqtisodchi olim Pigu tashqi ta'sirlar konsepsiyasini ishlab chiqqan va bu xarajatlarni ichkilashtirish uchun egri soliqlardan foydalanishni ilgari surgan.

## Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metadaligiysi sifatida butun Jahon iqtisodiy hamjamiyat doirasi va soliq tizimida qo'shilga qiymat va aksiz solig'iga oid olib borilayotgan soliq islohotlari, soliq siyosati, soliq kodeksi, qonunlari va qonun osti xujjalarni chuqur o'rganish davomida analiz va sintez, kuzatish, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhlash hamda klassifikatsiyalash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

To'g'ridan to'g'ri yaratilgan tovar, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatning bahosidan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar iqtisodiy jihatdan "bilvosita soliqlar" deya talqin etilib, ularning bazasini aniqlash xususiyatlarini 1-rasmdagidek tasvirlash mumkin.



**1-rasm. Bilvosita soliqlar bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari<sup>82</sup>**

1-rasmda keltirilgan bu xususiyatlar bilvosita soliqlar bazasini aniqlash jarayonida namoyon bo'lувчи asosiy jihatlar hisoblanadi. Xususan, bilvosita soliqlar bazasini aniqlash jarayonida keng qamrovlik tushunchasi butun bir jamiyat yoki o'sha tizimdagи iqtisodiy munosabatlarni qamrab olish orqali namoyon bo'lsa, daromad yoki foydadan ko'ra tovar va xizmatlar iste'molidan olinishi iste'molga asoslanganlik jihatlariga ustuvorlik beradi. Qolaversa, bilvosita soliqlar bazasini aniqlash jarayoni regressivlik xususiyati bilan ham ajralib turadi, ya'ni bu tartib daromadi kam summani tashkil etgan shaxslar va uy xo'jaliklari uchun ko'proq ta'sir qilsa, elastiklik jihatni narx yoki talabning o'zgarishida yaqqol yuzaga chiqadi. Misol uchun, agar ma'lum bir tovar yoki xizmat uchun soliq stavkasi sezilarli darajada oshirilsa, iste'molchilar ushbu obyektni iste'mol qilishni kamaytirishni tanlashi mumkin, natijada soliq bazasi kamayadi.

Shuningdek, boshqaruvning qulayligi va daromadlarning barqarorligi bilvosita soliqlarning bazasini aniqlashdagi asosiy xususiyat sanalib, davlat byudjeti uchun barqaror daromad manbasini ta'minlaydi, chunki ular bevosita soliqlarga nisbatan iqtisodiy tebranishlardan kamroq ta'sirlanadi. Bu barqarorlik davlat uchun byudjet va davlat xarajatlarini yanada samaraliroq rejalashtirish imkoniyatini paydo qiladi. Shuni alohida e'tirof etish mumkinki, bilvosita soliqlar bazasini aniqlash tartibidagi xususiyatlar har bir mamlakat belgilagan soliq tizimi va siyosatidagi yo'nalishlarga qarab farq qilishi tabiiy hol. Shu nuqtayi nazardan, ularning tushumlar miqdori ham ushbu belgilangan yo'nalishlarga muvofiq shakillanadi.

### 1-jadval


#### Respublika byudjetida 2019-2023 yillar uchun bilvosita soliq tushumlarining tahlili, mlrd. so'mda<sup>83</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Soliqli tushumlar	80 229,5	97 979,1	120 162,5	130 536,5	165 950,2
Bilvosita soliqlardan tushum	46 445,4	46 392,4	38 356,7	45 839,3	49 026,4
Bilvosita soliqlarning soliqli tushumlaridagi ulushi, %	55,7	47,3	31,9	35,1	31,3

<sup>82</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>83</sup> DSQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-jadvalda 2019-2023-yillar uchun bilvosita soliqlar tushumlarining ulushi berilgan bo'lib, bu miqdorlar o'zida keskin kamayish tendensiyasini namoyish etmoqda. Jumladan, 2019-yildan 2023-yilga qadar bilvosita soliqlardan tushumlar 46 445,4 so'mdan 49 026,4 so'mgacha ortib borgan va umumiy soliqli tushumlardagi salmog'i 24,4 %gacha pastlaganining guvohi bo'lish mumkin. Buning sababi esa soliq tiziming jahon amaliyotiga moslashish choralar natijasi deyish maqsadga muvofiqdir. Xususan, xalqaro soliq amaliyotida davlat budjeti daromadlarining tarkibida bevosita va bilvosita soliqlar egallagan ulushiga qarab shu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho beriladi.



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlarning bazasini aniqlash mexanizmi<sup>84</sup>**

2-rasmda keltirilgan chizmaga muvofiq, respublikamiz soliq tizimida bilvosita soliq hisoblangan qo'shilgan qiymat va aksiz soliqlarining bazasini aniqlash tartibi ko'rsatilgan bo'lib, bunda aksiz solig'i bazasini aniqlash jarayoni aksiz to'lana digan tovar (ish, xizmat) turiga va xususiyatiga qarab olib borilishi tasvirlanganini, qo'shilgan qiymat solig'ida esa uch bosqichli tarkibda shakllanishining guvohi bo'lamiz.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida 1992-yildan buyon amal qilib kelayotgan soliq hisoblanib, davlat byudjeti daromadlar tarkibini ta'minlovchi eng muhim soliqlardan biri sanaladi.

## 2-jadval 2019-2023 yillarda QQSning tushumlar tahlili, mlrd. so'mda<sup>85</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Soliqli tushumlar	80 229,5	97 979,1	120 162,5	130 536,5	165 950,2
Bilvosita soliqlardan tushum	46 445,4	46 392,4	38 356,7	45 839,3	49 026,4
QQSdan tushumlar	23 660,7	20 485,6	25 572,1	31 700,0	33 983,5
QQSning soliq tushumlaridagi ulushi	27,5 %	20,9 %	21,3 %	24,3 %	20,5
QQSning bilvosita soliqli tushumlardagi ulushi	50,9 %	44,1 %	66,7 %	69,2 %	69,3

<sup>84</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>85</sup> Soliq qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida mualif tomonidan yaratildi.

2-jadvalda keltirilgan statistik raqamlar respublikamiz bo'yicha 2019-2023-yillarda qo'shilgan qiymat solig'idan byudjetga tushumlar dinamikasining o'zgarishdagi o'sish tendentsiyalarini ifoda etayotganligining rasmiy asosidir. Bunda, 2019-yil ma'lumotlariga asosan respublika bo'yicha QQSning jami tushumi 23 660,7 mlrd. summani tashkil etib, respublika byudjet daromadlariga nisbatan 27,5 %ni ko'rsatgan bo'lsa, 2020-yil hisoblangan soliq miqdori oldingi yildagidan bir qadar kamagan va 20 485,6 mlrd. so'mni tashkil etib, davlat byudjet daromadlar qismining taxminan 20,9 %ni egallagan. 2021-2023 yillar statistikasi holatiga ko'ra, soliqdan tushumlar davlat byudjetining o'rtacha 22% miqdorini tashkil etib kelmoqda. O'z navbatida, bu ko'rsatkichlar soliq siyosatidagi tizimli islohotlar, jahon soliq amaliyotiga moslashish va soliq tizimida bazani aniqlash tartiblarining samarali olib borilishi bilan uzviy bog'langan. Jahon amaliyotiga ko'ra, QQS bazasi ishlab chiqarish yoki yetkazib berish zanjiridagi tarqatishlarning muayyan bosqichida paydo bo'lган qo'shilgan qiymatdan kelib chiqiladi. Jahon soliq amaliyotida QQS bazasini aniqlashning ikkita umumiyligi usullari mavjud.

1. *Hisob-fakturaga asoslangan usul.* Ushbu usul bo'yicha QQS bazasi mijozlarga berilgan schyot-fakturalarda aks ettirilgan korxona tomonidan amalga oshirilgan realizatsiyaning umumiyligi bilan belgilash tartibidan foydalanadi. Ushbu usul odatda, bir qancha mamlakatlarda, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada va Yangi Zelandiya kabi davlatlar tomonidan tovar va xizmatlar solig'ini yoki uyg'unlashtirilgan savdo solig'i bazasini aniqlashda qo'l keladi.

2. *Iste'molga asoslangan usul.* Bu usulning asosiy jihatni shundaki, umumiyligi QQS bazasi korxonalar yoki jismoniy shaxslarning iste'mol hajmi hisob-kitobi asosida aniqlanadi. Bunda tovar, ish yoki xizmatning yakuniy iste'moli ishlab chiqarish yoxud tarqatishning oraliq bosqichlarida yaratiladigan qo'shilgan qiymatni hisobga olmagan holda, biroq, yakuniy bosqichidagi qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Ushbu usulda soliq bazasini aniqlash metodi xalqaro soliq amaliyotida ommalashmagan va keng qo'llanilmaydi. Biroq, bu usuldan foydalanadigan mamlakatlardan biri AQSh bo'lib, bunda QQS ekvivalenti savdo solig'i sifatida tanilgan va u odatda oxirgi iste'molchiga tovar yoki xizmatlarning yakuniy sotish narxiga qarab belgilanadi.

Yuqorida ma'lumotlarga muvofiq, respublikamiz soliq tizimida QQS bazasini aniqlash tartibi jahon tajribasidagi birinchi usul – hisob-fakturaga asoslangan metoddan foydalaniladi va uni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida batafsil yoritilgan. Chunonchi, soliq qonunchiligidagi QQS bazasi sifatida soliq to'lovchi tomonidan o'zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlarga qarab aniqlanishi nazarda tutiladi.


Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 34-bobida qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash tartibi molivayi ijara (lizing) shartnomalari bo'yicha, vositachilik (topshiriq), transport ekspeditsiyasi shartnomalari bo'yicha, korxona mol-mulk majmuasi sifatida sotilganda, transportda tashishni amalga oshirishda, muddatli bitimlar bo'yicha tovarlar (xizmatlar) sotilganda, tovarlar respublika hududiga olib kirilganda yoki chet ellik shaxslar tomonidan sotilganda, qolaversa, davlat mulki asosida turli operatsiyalar ijaro etilganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari soliq agentlari tomonidan qanday amalga oshirilishi asoslab berilgan. Ya'ni, Soliq kodeksiga muvofiq, "QQS bazasi aksiz solig'ini (aksiz to'lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan narxida sotiladigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi".

"Soliq bazasi tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlab realizatsiya qilishda, tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko'rsatishda), yuridik shaxsning mol-mulkidan Soliq Kodeksining 239-moddasi to'rtinchi qismi 6-bandiga muvofiq shaxsiy maqsadlarda foydalanishda tovarlarning (xizmatlarning) O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi".

"QQSning real holatdagisi soliq bazasi o'z nomi bilan qo'shilgan qiymatdir deya e'tirof etilgan" (B.E.Toshmurodova, 2021). Bunda, QQS bazasi sifatida qo'shilgan qiymat tarkibi ancha kengdir.


Xususan, ish haqi xarajatlari, foyda, moliyaviy xarajatlar, amortizatsiya ajratmalari va boshqalar qo'shilgan qiymat tarkibidagi asosiy omillar hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlashning umumiy qoidalariga asoslangan va uning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda 3-rasmdagi chizma orqali tasvirlash mumkin.



**3-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash tartibining tavsifi<sup>86</sup>**

3-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, respublikamiz soliq amaliyotida qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash tartibi o'z ichiga uch bosqichni qamrab olgan va bunda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oborotidan realizatsiya oboroti sifatida tan olinmagan oborotlar va soliqdan ozod etilgan oborotlar (imtiyozlar) hajmiga farqi sifatida topiladi. Agarda, vaziyat belgilangan muddat ichida soliq bazasiga tuzatish kiritishni taqazo etsa, soliq bazasi tuzatish kiritilgan oborot hajmiga kengayadi yoxud qisqaradi.



**4-rasm. QQS bazasini aniqlash tartibiga ta'sir etuvchi umumiy omillar tarkibi<sup>87</sup>**

4-rasmda tasvirlangan QQS bazasini aniqlash protsedurasiga ta'sir qiluvchi omillarning tarkibi ko'rgazmali ravishda aks ettirilgan bo'lib, bu omillarning ta'sir doirasi atroficha izohlanadi.

Birinchidan, huquqiy va me'yoriy baza QQS bazasi o'rnatalgan qonun va qoidalar asosida belgilanishini tartibga solib turuvchi dastak hisoblanib, ushbu qonunlar qanday tovarlar va

<sup>86</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qonunchiligi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>87</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xizmatlar QQSga tortilishi va soliq solinadigan bazani qanday hisoblash kerakligini belgilasa, ikkinchidan, QQS miqyosining hajmi uni keng yoxud tor turdag'i tovar va xizmatlarga qo'llashni belgilab beruvchi omil sanaladi. Uchinchidan, tovar va xizmatlar tasnifi turli toifalar, turli stavkalar yoki imtiyozlarga ega bo'lishni nazarda tutsa, to'rtinchidan, xalqaro savdo munosabatlarida QQS bazasini belgilash uchun import va eksport operatsiyalari bilan bog'liq qoidalar va kelishuvlar ham ta'sir qilishi mumkin. Bunga bojxona bahosi, transchegaraviy xizmatlar va ayrim sanoat yoki tarmoqlar uchun maxsus qoidalar kabi istisnolar kiradi. Beshinchidan, ma'muriy salohiyat omili huquqiy hujjalarni samarali joriy etish, soliq nazorati o'tkazish va ularga rioya etilishni tartibga solish qobiliyati QQS bazasi qanday aniqlanishi va hisoblanishiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu omillar, nafaqat bizning soliq tizimimizda QQS bazasini aniqlash tartiblariga bevosita ta'sir qilibgina qolmay, balki, dunyoning turli mamlakatlarida ham asosiy ta'sir omillari hisoblandi.

*Aksiz solig'i* ham dunyo miqyosida qo'llaniladigan, fiskal xususiyatlari asosiy soliq turlaridan biri hisoblanib, bazi iste'mol mahsulotlariga, eng muhim xomashyolarga, inson yoxud tabiat uchun uchun zararli hisoblangan mahsulotlardan tortib, noyob va muayyan xizmatlar uchun solinadigan qo'shimcha majburiyatdir. Aksiz solig'ining qadim zamonlardan to hozirgi kungacha keng qo'llanilishining asosiy sababi uning aniq fiskal foydasi va ularni olish tezligining yuqoriligidir. 1666-yilda fransuz iqtisodchisi F.Demeyson aksiz solig'i "xazinaga barcha boshqa soliqlardan ko'ra ko'p va xatto tezroq daromad keltirishga qodir", - deya ta'kidlagan edi (B.H.Малов va boshqalar, 1991).

### 3-jadval

#### 2019-2023-yillarda aksiz solig'i tushumlarining tahlili, mlrd. so'mda<sup>88</sup>


Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Soliqli tushumlar	80 229,5	97 979,1	120 162,5	130 536,5	165 950,2
Bilvosita soliqlardan tushum	46 445,4	46 392,4	38 356,7	45 839,3	49 026,4
Aksizdan tushumlar	11 603,0	10 838,8	12 778,9	14 681,7	15 132,9
Aksiz solig'ining soliqli tushumlardagi ulushi	14,5 %	11 %	11 %	11 %	9,1
Aksiz solig'ining bilvosita soliqli tushumlardagi ulushi	25 %	23,4 %	33 %	32 %	30,8

3-jadvalda berilgan ko'rsatkichlar aksiz solig'idan tushumlar tahlili bo'lib, unga ko'ra, 2019-yilda bu soliqdan tushumlar dinamikasi 11 603,0 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu miqdor, bir qadar ortib 12 778,9 so'mdan iborat bo'lgan. Ayni shu yillarda aksiz solig'ining tushumlar miqdori umumiyligi soliqlar tarkibida 14,5 % va 2021-2022 yillar oraliq'ida bu ulush dinamikasi stabil 11%ni tashkil qilganining guvohi bo'lish mumkin. Biroq, aksiz solig'ining bilvosita soliqli tushumlardagi ulushi 2019-yilga nisbatan 2023-yilga kelib 5,8 %ga oshganing sezilarli muvofaqiyatdan darak beradi (25 %dan 30,8 %ga). Bu o'sishning zamirida esa oxirgi yillarda aksiz solig'i ma'muriyatçilik tartibidagi samarali soliq siyosati olib borilganining natijasidir. Jahonda uni aniqlash tariblarining bir nechta umumiyligi usullari mavjud.

5-rasmida berilgan chizmada keltirilgan ma'lumotlar jahon soliq tizimida aksiz solig'i bazasini aniqlash tartiblarining umumiyligi usullarini o'zida jamlagan va bu usullar quyidagicha izohlanadi:

**1-usul – hajmga asoslangan usul.** Bu usul soliq solinadigan tovarlar hajmi yoki miqdoridan kelib chiqib, aksiz solig'i bazasini hisoblab chiqadi. Masalan, yoqilg'iga aksiz solig'i sotilgan gallon yoki litr soniga qarab hisoblanishi mumkin. Aksiz solig'i bazasini aniqlashning hajmga asoslangan usuli dunyoning ko'plab mamlakatlarida mavjud.

<sup>88</sup> DSQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



**5-rasm. Aksiz solig'i bazasini aniqlashning umumiy usullari tasnifi<sup>89</sup>**

**2-usul – qiyamatga asoslangan usul.** Bu usul soliq solinishi lozim bo'lgan tovarlarning qiymatidan kelib chiqib bazani aniqlashni nazarda tutadi. Masalan, dabdabali buyumlarga aksiz solig'i obyekt qiyamatining foizi sifatida hisoblanishi mumkin. Aksiz solig'i bazasini aniqlashning bu usuli dunyoning ko'plab mamlakatlarida amalda bo'lib, bu mamlakatlardan biri Amerika Qo'shma Shtatlari hisoblanadi.

**3-usul – maxsus (spesifik) stavka usuli.** Bu usul bo'yicha soliq solinadigan tovarlarning har bir birligi uchun qat'iy belgilangan soliq miqdori belgilanadi. Masalan, har bir quti sigaret yoki bir shisha alkogol uchun maxsus aksiz solig'i stavkasi bo'lishi mumkin. Aksiz solig'i bazasini aniqlashning o'ziga xos stavka usuli ham keng tarqagan metod hisoblanib, dunyoning turli mamlakatlarida foydalananib kelinadi.

**4-usul – advalor usuli.** Bu usul aksiz solig'i bazasini soliqqa tortiladigan tovarlar qiymatidan foiz sifatida hisoblab chiqadi. Masalan, zargarlik buyumlari uchun advalor aksiz solig'i bo'lishi mumkin, bunda soliq zargarlik buyumlari qiyamatining foizini tashkil qiladi. Aksiz solig'i bazasini aniqlashda bir qancha mamlakatlarda advolar usuli qo'llaniladi. Ushbu mamlakatlarga Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika, Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari kiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir mamlakatda aksiz solig'i bazasini aniqlash bo'yicha o'ziga xos qonun va qoidalar bo'ladi. Ba'zi mamlakatlarda hisob-kitobga ta'sir qiluvchi qo'shimcha omillar yoki istisnolar bo'lishi mumkin.


Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasida 1991-yil 15-fevraldan buyon mavjud bo'lib, soliq bazasini aniqlash tartibi soliqqa tortiladigan har bir tovarlar (xizmatlar)ning turi uchun alohida e'tiborga olinishi soliq qonunlarida belgilab qo'yilgan.

Aksiz solig'i bazasini aniqlash tartibidagi mavjud xususiyat shundaki, bu aksiz hisoblanadigan tovar (xizmat)ga nisbatan qo'llaniladigan soliq stavkasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikdir. Ya'niki, agar soliq stavkasi qat'iy (mutlaq) summada bo'lsa, aksiz solig'inining bazasi uning natura shaklidan yoki miqdoridan kelib chiqiladi. Boshqa holatlarda, aksiz osti mahsulot yoki xizmat uchun soliq stavkasining foizlarda belgilanishi soliq bazasi haqiqatda realizatsiya qilingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanishini taqozo etadi. Biroq, bunda hisobga olinadigan qiyomat ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmasligi lozim.

Aksiz solig'i tatbiq qilinadigan tovar yoki xizmatlar tarkibi iste'mol xususiyatlarining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda mamlakatlar bo'yicha farqlanishi mumkin. Masalan,

<sup>89</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Angliya, AQSh va Fransiyada aksiz to'lanadigan tovarlar soni to'rttadan oshmaydi, Yaponiyada hashamatli va gurme mahsulotlar qatoriga kiruvchi 600 dan ortiq turdag'i tovarlar, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlari, mobil aloqa xizmati, polietilin granulalari, import tovarlari va tabiiy gaz, shuningdek, yakuniy iste'molchilarga gaz, dizel yoqilg'isi va benzin realizatsiyasi kabi tarkibli tovar (ish, xizmat)ni tashkil etadi.



**6-rasm. Aksiz to'lanadigan tovar (xizmat) larning soliq bazasini aniqlash xususiyatlari<sup>90</sup>**


6-rasmda mamlakatimizdagi ayni kunlardagi soliq qonunchiligiga binoan aksiz solig'ining bazasini aniqlash tartibidagi xususiyatlar berib o'tilgan. Unga ko'ra, respublikamiz hududiga import qilingan aksiz osti tovar mahsulotlarining bazasini, benzin, dizel yoqilg'isi yoki gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'idagi soliq solish bazasining aniq xususiyatlari va tartiblari izohlangan.

Yuqoridagilar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, respublikamiz soliq tizimida aksiz solig'i bazasini aniqlash tartibiga ta'sir etuvchi omillar 7-rasm orqali tasvirlanadi.

Quyidagi 7-rasmda keltirilgan chizmada respublikamiz soliq tizimida aksiz solig'i bazasini aniqlash tartibiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi batafsil ko'rsatib berilgan bo'lib, bunda birinchi omil - mahsulotning qiymatidir. Aksiz solig'i bazasi, mahsulot sotish narxi yoki qiymati asosida belgilanadi. Mahsulotning qiymatining ortishi yoki kamayishi aksiz solig'i bazasini ham o'zgartiradi.

Ikkinci omil hisoblangan mahsulotning miqdori aksiz solig'i bazasini ham o'zgartiruvchi dastaklardan biri bo'lib, bunda, mahsulotning miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan aksiz solig'i bazasi ham o'zgaradi.

<sup>90</sup> O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



**7-rasm. Aksiz solig'i bazasini aniqlash tartibiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi<sup>91</sup>**

Uchinchi omil esa bevosita mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari bilan aloqador hisoblanadi, jumladan uning kaloriforligi yoki alkogoldan foydalanilganlik darajasi kabilar bo'lsa, to'rtinchi omil import va eksport jarayoni sanaladi.

Beshinchi omil sirasiga kiruvchi ba'zi o'zgartirishlar va to'lovlearning joriy etilishi yoxud bekor qilinishi aksiz solig'i bazasini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, mahsulotning turkumi deb ataluvchi oltinchi omil aksiz solig'i bazasini ta'sir etuvchi yana bir omil hisoblanadi. Bunda, mahsulot turkumining qaysi sohada ishlatilishi, uni sotish va ishlab chiqarish jarayonlari nazarda tutiladi.

### Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan mulohaza qilish mumkinki, bilvosita soliqlar bazasini aniqlash jarayoni davlat byudjeti salmog'ini belgilab berishdagi, qolaversa mamlakat iqtisodiyotining raqobat korsatkichi sifatida muhim omil hisoblananib, o'ziga xos ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Xusan, bilvosita soliqlar bazasini aniqlash jarayonida keng qamrovllilik tushunchasi butun bir jamiyat yoki o'sha tizimdagi iqtisodiy munosabatlarni qamrab olish orqali namoyon bo'lsa, daromad yoki foydadan ko'ra tovar va xizmatlar iste'molidan olinishi iste'molga asoslanganlik jihatlariga ustuvorlik beradi. Qolaversa, bilvosita soliqlar bazasini aniqlash jarayoni regressivlik xususiyati bilan ham ajralib turadi, ya'ni bu tartib daromadi kam summani tashkil etgan shaxslar va uy xo'jaliklari uchun ko'proq ta'sir qilsa, elastiklik jihatni narx yoki talabning o'zgarishida yaqqol yuzaga chiqadi.

### Adabiyotlar/Литература/Reference:

Alan A. Tait Value-Added (1991) TaxAdministrative and Policy Issues, Series: Occasional Papers. Publisher: International Monetary Fund. Language: English/ Publication Date: 15 Jun. DOI: <https://doi.org/10.5089/9781557751843.084>. ISBN: 9781557751843. Pages: 100.

Michael Keen and Ben Lockwood (2007) International Monetary Fund WP/07/183 IMF Working Paper Fiscal Affairs Department The Value-Added Tax: Its Causes and Consequences Prepared by Publisher: Cambridge University Press Online publication date:November 2009. Print publication year: 2007 Online ISBN:9780511619366. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511619366>

Гадоев Э.Ф. и др. (2011) Косвенные налоги. Учебно-практическое пособие. –Т. “Норма”, – 220 с.

Гатаулин Ш.К. ва бошқалар (1996) Солиқлар ва солиқча тортиниши. Дарслик. Т.: “Иқтисодиёт ва хуқуқ дунёси”, – 304 б.

Завалишина И. (2005) Солиқлар: назария ва амалиёт. Т: 2005, “Иқтисодиёт ва хуқуқ дунёси”, – 539 б.

<sup>91</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.